

**INKLYUZIV TA'LIM O'QUVCHILARI SALOHIYATI VA  
QOBILIYATLARINI ANIQLASH VA JAMIYATDA O'Z O'RNNINI  
TOPISHGA KO'MAKLASHISH**

*Davlatova Iroda Yusufjon qizi*

*Namangan viloyati Pop tumani 35-sonli umumiy o'rta ta'limgak moshlang'ich sinflarda inklyuziv ta'limga o'qituvchisi*

**Annotasiya:** Ushbu maqolada mamlakatimizda joriy qilinayotgan yangi ta'limga tizimi ya'ni inklyuziv ta'limga tizimining takomillashuvi, va bu ta'limga tizimini barcha ta'limga tashkilotlarida joriy qilinganligi, respublikamizda joylashgan ta'limga tizimlaridagi imkoniyati cheklangan bolalarga o'z tengdoshlari qatorida ta'limga berish va shu bilan bir vaqtda ularning ehtiyoji hamda qobiliyatlariga qarab individual yondoshish, inklyuziv ta'limga tizimini rivojlantirish maqsadi va vazifalari haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** ta'limga, tarbiya, inklyuziv, rivojlanish, takomillashuv, harakat, inklyuziya, maxsus ta'limga, uyg'unlashish, nogiron, imkoniyati cheklangan bola.

Ma'lumki, bola ongiga aloqador nogironlik mavjudligi ta'limga borasida sog'lom bolalar bilan bir xil qobiliyatga ega bo'lishga yo'l qo'ymaydi. Yuqorida tasniflangan metodlar bosqichma-bosqich amalga oshirildi. Bizga ma'lumki, inklyuziv ta'limga nogironligi bo'lgan bolalarga teng huquq va imkoniyatlar tengligini berishdir. Masalan, maktabga sog'lom bolalarning barchasi borsa, nogiron bolalarning ham imkoniyati borlari to'la borishi kerak. Chunki inklyuziv ta'limga oiladan, maktabgacha ta'limga muassasalaridan boshlab yo'lga qo'yilayotganligi muhim ahamiyatga ega. Bu esa bolaning keyinchalik atrofdagilar bilan muloqotda bo'lishiga, ijtimoiy muhit talablariga javob bera oladigan va shu bilan birga, kundalik-maishiy ehtiyojini qondirish ko'nikmalarini erta egallashlariga, hayotga moslashib, ta'limga muassasalarda tengdoshlari qatori darslarni o'z vaqtida o'zlashtirishiga, topshiriqlarga mas'uliyat bilan yondashish ko'nikmasini egallashlariga ko'maklashadi. Biroq inklyuziv ta'limga nafaqat nogiron yoshlar o'rtasida, balki sog'lom turmush tarzi mavjud bo'lgan oiladagi bolalar o'rtasida, maktabgacha ta'limga muassasalarida, maktablarda, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarida, oliy o'quv yurtlarda fanlarni o'zlashtirish darajasi turlicha bo'lgan yoshlar orasida ham joriy etish mumkin.

Nogironlikni o'zini uch guruhga ajratish mumkin va 1-2 guruh nogironlarini iloji boricha sog'lom bolalar bilan yaqinlashtirib, tarbiya jarayonini uyuştirish jamiyatni sog'lomlashtiradi, degan xulosaga olib keladi. Bu o'rinda hozirgi tarbiya jarayoni ayni shu yo'nalishda borayotganini ko'ramiz. Inklyuziv ta'limga bu o'zi nima?

INKLYUZIV - (inklyuziya - inglizcha [inclusion] - uyg'unlashish) Hamkorlikdagi ta'limga bo'lib, butun dunyo hamjamiyati tomonidan eng samarali, eng

insonparvar ta'lism sifatida tan olingan. Imkoniyati cheklangan bolalarni maktabgacha ta'lism tashkilotlariga sog'lom tengdoshlari bilan birga ta'lism olishidir. Inklyuziv ta'lism pedagog xodimlar va ota-onalar tomonida ta'lism jarayoniga ijodiy yondashuvni o'zida aks ettiradigan tabiiy jarayon hisoblanadi. Inklyuziv ta'lism rasmiy ta'lism tushunchasidan ancha kengroq. Bu ta'linda ko'proq o'qishda, o'rganishda imkoniyati cheklangan bolalar bilan ishlanadi. Inklyuziv bog'chada tarbiyachi qanday sifatlarga ega bo'lish kerak?

Inklyuziv ta'linda o'qituvchining kasbiy mahorati bosh omil hisoblanadi. Avvalo, o'qituvchi inklyuziv taffakkurga ega bo'lishi va ta'lism sifati ma'suliyatini o'z zimmasiga olishi shart. Inklyuziv ta'lismni oiladan maktabgacha ta'lism muassasalarida, umumta'lism maktablarida, kasb-hunar kollejlari va oliy o'quv muassasalarida joriy etish natijasida alohida ehtiyoji bor insonlarga nisbatan umumiyl munosabat o'zgarayotgani ma'lum bo'ldi. Bu esa ularning hayotda muvaffaqiyat qozonishi uchun omil bo'lib xizmat qilishi mumkin. Inklyuziv ta'lism imkoniyati cheklangan bolalarga umumta'lism jarayonidagi barcha tadbirdarda faol va muntazam ishtirok etish imkonini beradi. Buning natijasida stereotiplar shakllanishining oldi olinib, ko'rsatiladigan individual yordam imkoniyati cheklangan bolalarni jamiyatdan ajratib qo'ymaydi. Ular olgan ko'nikmalarini umumlashtirish imkoniga ega bo'lishadi. Imkoniyati cheklangan insonlar uchun ishlab chiqilgan va jamiyatga rejali asosda joriy etilayotgan inklyuziv ta'lism strategiyasi o'qishning uzlusiz va muttasilligini ta'minlaydi. Oila – bolalar bog'chasi – muktab – kasb-hunar kolleji – ish bilan ta'minlash – ushbu tizim kelajakda ota-onalarga imkoniyati cheklangan bolalarini umumta'lism muassasalarini va oliy o'quv yurtlariga bemalol, xavfsiramasdan olib kelishlari uchun zamin yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi farmoniga muvofiq O'zbekistonda inklyuziv ta'lismni rivojlantirish, alohida ta'lism ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lism-tarbiya berish tizimini takomillashtirish hamda ularga ko'rsatiladigan ta'lism xizmatlari sifatini yaxshilash maqsadida 2020-2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'lismni rivojlantirish konsepsiysi ishlab chiqildi.

Bu konsepsiya alohida ta'lism ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ko'rsatiladigan ta'lism xizmatlari sifatini yaxshilash bo'yicha quyidagi vazifalar belgilandi:

- alohida ta'lism ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'lism oladigan ta'lism muassasalarini binolariga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash;
- alohida ta'lism ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'qitiladigan ta'lism muassasalarini zarur adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, turli kasblarga o'qitish uchun uskuna va jihozlar bilan ta'minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;
- alohida ta'lism ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'qitish uchun inklyuziv ta'lism tizimini tashkil etish, umumta'lism muassasalarini maxsus moslamalar (ko'tarish

qurilmasi, pandus, tutqich va boshqalar), shuningdek tegishli kadrlar (maxsus pedagog, bolalarni ruhiy-pedagogik kuzatish bo'yicha mutaxassislar) bilan ta'minlash;

- alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning moslashishi va integratsiyasi uchun maktab-internatlarni bosqichma-bosqich maxsus jihozlar bilan ta'minlash va boshqalar.

Inklyuziv ta'lim berish o'qituvchilar ishi sifatining asosiy mezonlari - o'qituvchi o'quvchilarining turli toifada ekanligiga qaramay barcha bolalarning huquqini himoya va hurmat qilishi Yana bir sifat - hamkorlikni yo'lga qo'yish. Chunki o'qituvchilar uchun hamkorlik va o'zaro fikr almashish muhimdir. O'qituvchi o'z faoliyatini tizimli baholab borishi, muntazam malakasini oshirishi, alohida ta'lim ehtiyojlari bor bolalarning intizomli va muassasalararo guruhlar bilan samarali ishlashi uchun liderlik hamda boshqaruvalarini qo'llash, muammolarni birgalikda hal qilish, keng qamroqli maktab hamkorligini yo'lga qo'yish kabi xislatlarga ega bo'lish kerak.

Inklyuziv ta'limda imkoniyati cheklangan bolalarga nima beradi?

- o'z imkoniyatini o'zi uchun kashf etish imkonini beradi
- mustaqil harakatlanish birgalikda, hamkorlikda ishlash imkoniyati orqali yuzaga keladi;
- dunyoqarashi kengayadi, hayotiy tajribasi oshadi;
- o'qishga bo'lgan ehtieji va qiziqishlari ortadi;
- o'zini barcha bilan bir xil his qila boshlaydi;
- ilgari sezilmagan imkoniyatlari ochiladi;
- yotsirash, yakkalanish kabi xususiyatlari yo'qoladi.

Inklyuziv ta'lim vazifasi bolalarning qobiliyatları va holatidan qat'i nazar, ularning barchasiga sifatlari ta'lim taqdim etishdan iborat. Shu bilan birga, inklyuzivlik tamoyili imkoniyatlari cheklangan bolalar ijobiy ruhiy va ijtimoiy rivojlanishga ega bo'lishlari uchun oilada yashashlari va o'z tengdoshlari bilan birga oddiy maktabda bilim olishlari lozimligini nazarda tutadi. Ma'lumki, inklyuziv ta'limda maxsus ta'lim ehtiyojidagi bolalar barcha bolalar bilan birga ma'lum maqsadda turli qobiliyatlarga muvofiq guruhlashtiriladi. Maxsus ta'lim aqliy, jismoniy tashqi ko'rinishga muvofiq amalga oshirilsa, inklyuziv ta'lim bolaning qobiliyati va imkoniyatlariga ko'ra belgilanadi. Maxsus ta'lim o'qitishning maxsus va alternativ dasturlari orqali o'qitilsa, inklyuziv ta'lim bolaga yo'naltirilgan va moslashtirilgan, yo'riqnomali, barchaga mo'ljallangan o'quv dasturi asosida o'qitiladi. Inklyuziv ta'limning o'ziga xos muhim jihat shundaki, bolalar va o'qituvchi bir -birlaridan o'rganishadi hamda muammolarni birgalikda xal etishadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, ta'lim tizimida inklyuziv ta'limning ahamiyati shundaki, imkoniyati cheklangan bolalarni ilk yoshlaridanoq sog'lom bolalar qatoriga qo'shib sifatlari ta'lim olishini ta'minlagan holda bolada ruhiy va jismoniy hissiyotlarini va haraktlarini rivojlantirishdir. Nuqsoni bor bolalarni har tomonlama tarbiyash orqali

ularni ona-Vatanga, tabiatga nisbatan go‘zallikni his etishga, tafakkurini rivojlantirishga, bolalarning talab-ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Prezident Shavkat Mirziyoyevning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 25 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи ma‘ruzasi
2. O‘zbekiston Respublikasining "Ta‘lim to‘g‘risida" gi Qonuni O‘RQ-637-соҳ 23.09.2020.
3. Muzaffarova, X. (2021). INKLYUZIV TA‘LIMNI AMALIYOTGA JORIY QILISH MASALALARI. Scienceweb academic papers collection.
4. Muzaffarova, X. (2021). MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALARGA TA‘LIM-TARBIYA BERISHDA KORREKSION METODLARINING MOHIYATI. Scienceweb academic papers collection.
5. Muzaffarova, X. (2021). BOLALAR PSIXIKANING RIVOJLANISHINI BELGILAYDIGAN OMILLAR. Scienceweb academic papers collection.
6. Muzaffarova, X. (2020). MAXSUS YORDAMGA MUHTOJ BOLALARNI TA‘LIMGA JALB ETISHDA UCHRAYDIGAN MUAMMOLAR.